

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG YEVROPADA INTEGRATSION
JARAYONLARNING BOSHLANISHI VA YAGONA ITTIFOQNING VUJUDGA KELISHI
JARAYONLARI

Alisher Aloxunov

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi, PhD

Abduvahobov Faxriddin Dilmurodjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada boshlangan integratsiya jarayonlari hamda tashkil etilgan siyosiy, harbiy, iqtisodiy tuzilmalar haqida ma'lumotlar beriladi.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об интеграционных процессах, начавшихся в Европе после Второй мировой войны, и сложившихся политических, военных и экономических структурах.*

Abstract: *This article provides information about the integration processes that began in Europe after the Second World War, and the established political, military and economic structures.*

Kalit so'z va iboralar: *Integratsiya, Ittifoq, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati, "Umumiy bozor", Rim shartnomalari, "Marshall rejasi", Yevropa Kongressi*

Ikkinchi jahon urushi davomida, urushdan so'ng Bretton Vuds tizimining (Qo'shma Shtatlar, Kanada, G'arbiy Yevropa, Avstraliya va Yaponiya o'rtasidagi 1944-yilda Bretton-Vuds shartnomasidan keyin tijorat va moliyaviy munosabatlar bo'yicha yo'lga qo'yilgan qoidalar tizimi bo'lib, ushbu mexanizm mustaqil davlatlar o'rtasidagi pul munosabatlarini boshqarishga mo'ljallangan to'liq kelishilgan pul tartibining birinchi namunasi edi), 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining va Fransiya Ittifoqining (1946-1958) yaratilishi bilan Yevropada internatsionalizm sekin-asta kuchayib bordi. BMT o'z faoliyatini Yevropani integratsiyalashtirgan holda mamlakatlarni mustamlakachilikdan ozod qilishga qaratgan edi. Shuningdek tashkilot Yevropada joylashgan mustamlaka davlatlarini ham tuzilajak Yevropa hamjamiyati tarkibiga birlashtirishga harakat qilardi[5:4]. Shu nuqtai nazardan, Yevropa integratsiyasini istovchi kuchlar uchun urush qit'aning katta qismini vayron qilgan o'ta millatchilik davosi sifatida ko'rilgan edi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa siyosatida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. Umuman olganda, G'arb davlatlarining iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy sohada birlashish jarayonining boshlanishi G'arbnig XX asr ikkinchi yarmidan keyingi taraqqiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati edi. Urushdan keyingi ahvol Yevropa davlatlarini iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga undadi[3:176].

Yevropani birlashtirish g'oyasi Ikkinchi jahon urushidan keyin yanada avj oldi. Uning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari quyidagilardan iborat edi:

- 1) Yevropa xalqlari anglangan tinchlik zarurati;
- 2) urush oqibatida vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash uchun G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zaruriyati;
- 3) AQSh va SSSR asosiy kuchga aylangan ikki qutbli dunyo tizimini shakllantirish;
- 4) mustamlakachilik tuzumining qulashi natijasida G'arbiy Yevropa avvalgi siyosiy vaznini va ko'plab bozorlarini yo'qotgani.

Yagona Yevropani tuzish uchun real sharoit Ikkinchi jahon urushidan so'ng paydo bo'ldi. Umuman olganda, Yevropadagi integratsion jarayonlar boshqa hududlardagiga nisbatan muvaffaqiyatli kechdi[2:457]. Birlashgan Yevropa uchun urushdan keyingi harakatning boshlang'ich nuqtasi Buyuk Britaniya davlat arbobi Uinston Cherrchillning 1946-yil 19-sentabrda Syurix universitetida o'qigan "Yevropa fojiasi" nutqi hisoblanadi. Unda Cherrchill yevropaliklarni "milliy nizolarga", birinchi navbatda, fransuz-nemis qarama-qarshiligiga chek qo'yishga va qit'ada "Yevropa Qo'shma Shtatlariga o'xshash narsani" shakllantirishga chaqirdi. "Marshall rejasi"ning e'lon qilinishi munosabati bilan 16 ta davlat 1947-yil iyunda Yevropani Tiklash Qo'mitasini tuzdilar. Shu yili 23 ta davlat vakillari Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuvni (TSBK) imzoladi. Uni imzolagan davlatlar import tovarlariga soliqlarni o'zaro kamaytirish va boj "urushlarini" bartaraf etish hisobiga tashqi savdo rivojini qo'llab-quvvatlash majburiyatini oldilar. Keyinchalik TSBK kengayib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar ham qo'shildi va TSBK 1995-yil 1-yanvardan Jahon savdo tashkiloti (JST) (inglizcha World Trade Organization – WTO) deb qayta tuzildi.

1948-yilga kelib Fransiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida "Bryussel Pakti" ("G'arbiy Ittifoq") deb nom olgan hujjat imzolangan bo'lib, bu shartnoma harbiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilishni ko'zda tutgan edi. 1948-yilning may oyida Yevropani birlashtirish g'oyasini ilgari surgan Gaaga Kongressi bo'lib o'tdi. Bu birinchi marta barcha Yevropada yangi davrni boshlash tarafdorlarining bir tom ostida birlashuvi edi. Kongressda Yevropaning 16 mamlakati vakillari, shuningdek, AQSh va Kanadadan kelgan kuzatuvchilar turli integratsiya rejalarini – federal davlat yaratishgacha bo'lgan loyihalarni muhokama qildi. Bundan tashqari, Kongress ko'plab davlat arboblarni, shu jumladan keyinchalik Yevropa Ittifoqining asoschilari sifatida tanilgan ko'pchilikni o'ziga jalb qildi. Unda yangi Yevropa Kengashining shakllanishi muhokama qilindi va yakunda Yevropa Harakati va Yevropa Kollejining tashkil etilishiga erishildi. Xuddi shu yili Parijda Yevropa va Shimoliy Amerikaning ayrim davlatlari o'rtasida konvensiya imzolanib, Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT) tuzilganligi e'lon qilindi. Bu tashkilot AQSh va Kanadaning ko'magi bilan urushdan keyingi Yevropani qayta tiklash maqsadida tuzilgan edi[6:165]. Yevropa iqtisodiy integratsiyasining uzoq yo'lida dastlabki qadamlar qo'yildi. 1949-yilga kelib iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, huquqiy va ma'muriy sohalardagi siyosatni kelishgan holda amalga oshirishga

ko'maklashuvchi G'arbiy Yevropadagi ilk tashkilot – Yevropa Kengashi tuzildi. Tashkilot Yevropa qit'asida qonun ustuvorligi va Parlamentar demokratiyani ta'minlash, Yevropa davlatlari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish va "umumyevropaviy ongini shakllantirish kabi masalalarga o'z diqqat-e'tiborini qaratdi (hozirda Yevropa Kengashining faoliyati inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan). Uning ta'sischilari Belgiya, Daniya, Fransiya, Irlandiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya va Buyuk Britaniya bo'ldi. Endi G'arbiy Yevropa davlatlari integratsiyasidagi asosiy diqqat-e'tiborini siyosiy yo'nalish o'rniga, iqtisodiy yo'nalishga qaratdi.

Yevropaning birlashish jarayoni avval boshdanoq to'xtovsiz bahslar bilan o'tdi. Fransuzlar va yana bir qator davlatlar ko'plab sohalarda juda tez yagona hokimiyat o'rnatishni istadilar va federasiya tipidagi parlament va hukumat tuzishni yoqlab chiqdilar. Ular Yevropaning har tomonlama kengayishni xohlashdi. Inglizlar, gollandlar va boshqalar ayrim sohalardagi hamkorlikni yetarli hisoblab, Yevropa parlamentiga qonunchilik vakolatlarini emas, maslahat huquqini berishni taklif qildilar.

Yevropada endi har tomonlama birlashish jarayoni kuzatila boshlandi. 1944-yili Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburgning quvg'indagi hukumatlari tomonidan tuzilgan "Benilyuks" deb atalgan bojxona ittifoqi, 1949-1950-yillarga kelib shu ittifoqdosh mamlakatlar doirasida katta huquqqa ega bo'ldi. Ittifoq endi bitim imzolagan davlatlar o'rtasida sanoat mahsulotlari importiga nisbatan cheklovlarni bekor qilindi. 1950-yillarning o'rtalariga kelib "Benilyuks" doirasida ishchi kuchi va kapitalning erkin aylanishi yo'lga qo'yildi. Ko'p tomonlama maslahatlar va yagona ovoz berish prinsiplari ishlab chiqildi.

UmumYevropa integratsion hamkorligining tashkil topishida "Marshall rejasi" (1948-yil) ham ma'lum ahamiyatga ega bo'ldi. Bu reja doirasida G'arbiy Yevropa davlatlari o'zlarining xo'jalik hayotini tiklash va qayta qurish uchun AQShdan juda katta miqdorda (12,4 mlrd. AQSh dollari) moddiy yordam olgan edi. Bundan tashqari 1949-yilda sobiq SSSR boshchiligida Sharqiy Yevropa davlatlarining O'zaro Iqtisodiy yordam Kengashining (O'IYK) tashkil topishi ham G'arbiy Yevropa mamlakatlarining milliy xo'jaliklarini bir-biriga yaqinlashishiga (integratsiyalashuviga) turtki bo'ldi. Vanihoyat, mustamlakachilik imperiyalarining (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya va boshqalar) yemirilishi sobiq metropol davlatlarning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ham olib keldi[4:65-66].

Yevropada yagona ittifoqning tashkil topishida Fransiya tashqi ishlar vaziri R.Shumanning ham muhim ahamiyatga ega bo'lganini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. 1949-yili Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tuzilgandan so'ng R.Shuman an'anaviy frank-german raqobatchiligi o'rniga Germaniya va Fransiyaning iqtisodiy imkoniyatlarini birlashtirish g'oyasini ilgari surdi. U 1950-yil 9-mayda so'zlagan nutqida "Yevropa birdaniga yoki bitta reja bo'yicha yaratilmaydi. U birinchi navbatda de-fakto birdamlikni yaratadigan aniq yutuqlar orqali quriladi", - deb ta'kidladi va

“Shuman deklaratsiyasi” deb atalgan rejani taklif qildi. Shu reja doirasida 1951-yil 18-aprelda GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg davlatlari Parijda 50 yil muddatga “Yevropa ko‘mir va po‘lat jamiyati”ni (YKPJ) (ECSC – European Coal and Steel Community) tashkil qildilar. Shartnoma 1952-yil iyul oyida kuchga kirdi. Yevropa davlatlarining ko‘mir va po‘lat sanoatini birlashtirish to‘g‘risidagi ushbu kelishuvi Yevropa integratsiyasi yo‘lidagi birinchi katta qadam bo‘ldi. Bu kelishuv ko‘mir va metallurgiya sanoati mahsulotlarining umumiy bozorini tashkil qilishni, ko‘mir va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni, raqobat qoidalariga va narxlarning shaffofligi tamoyiliga rioya qilishni, mehnat sharoitlarini yaxshilash va bu sohalarida bandlik muammolarini hal qilishni, o‘zaro boj to‘lovlarini bekor qilishni, ECSCga kirmagan davlatlarga nisbatan yagona boj siyosatini yuritishni ko‘zda tutardi. Bundan tashqari, shartnomada Yevropada tinchlikni mustahkamlash va xalqlarning birlashishi uchun zamin yaratishga qaratilgan bandlar ham edi. Ko‘mir qazib olish va po‘lat ishlab chiqarishni xalqaro nazoratga o‘tkazish orqali shartnoma taraflari ikkita muammoni hal qildi: milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga yordam berdi (keyinchalik bu metallurgiya va og‘ir sanoat uchun asos bo‘lib xizmat qildi) va mamlakatlardan biri yangi urushga tayyorlanish imkoniyatini yo‘q qildi. ECSCning bosh ma‘muri kelishuvning bajarilishiga nisbatan qatnashuvchi davlatlar hududida qonun kuchiga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo‘ldi. Birlashmaning birinchi raisi fransuz Jan Monne bo‘ldi. Yana 6 ta davlat qo‘shilgandan so‘ng birlashma 1990-yillarga kelib G‘arbiy Yevropada toshko‘mir qazib chiqarishni to‘liq, po‘lat va cho‘yan eritishning 90% ini, temir rudasi qazib chiqarishning 40% ini nazorat qila boshladi. ECSC shartnomasi 2002-yil 23-iyulda uning 97-moddasida ko‘rsatilgan 50 yillik amal qilish muddati yakunlangandan so‘ng tugatildi. Buyuk Britaniya milliy suverenitetini cheklashdan qo‘rqib Yevropa hamjamiyatiga a‘zo bo‘lishdan bosh tortdi.

Ko‘mir va po‘lat bo‘yicha shartnomaning muvaffaqiyatiga asoslanib, ECSCning olti davlati boshqa iqtisodiy sohalarida ham hamkorlikni kengaytirishga va integratsiyani chuqurlashtirishga qaror qildilar. 1957-yil 2-martda xuddi shu olti davlat (Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Fransiya va Italiya) Rim shahrida Yevropa birligini rivojlantirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bojxona ittifoqi va qishloq xo‘jaligi sohasida umumiy siyosat olib borishga yo‘naltirilgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH, yoki “Umumiy bozor”) (EEC – European Economic Community) va atom energetikasi bo‘yicha Yevropa atom energiyasi hamjamiyatini (Euratom – (EAEC) European Atomic Energy Community) tuzdi. Yuqorida zikr etilgan olti mamlakat YIHga a‘zo bo‘lib kirdi. Barcha hujjatlar 1958-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi. ECSC shartnomasidan farqli o‘laroq, Rim shartnomalari “cheklanmagan muddatga” tuzilgan (EEC shartnomasining 240-moddasi va EAEC shartnomasining 208-moddasi). Ushbu hujjatlar integratsion jarayonlarni rivojlantirishga doir asosiy yondashuvlarni, ya‘ni, “to‘rtta erkin makon”ni (tovarlar, xizmatlar ko‘rsatish, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi makonlari) yaratish imkonini berdi. Shuningdek,

barcha mahsulot turlarining umumiy bozori yaratildi. Bu prinsipni amalda tatbiq qilish soliq va ijtimoiy siyosatlarning yagona standartlarini qabul qilmasdan, qonunchilik bazasini bir xil ko'rishga keltirmasdan mumkin emasdi. Bu muammolarni hal qilish integratsiyalashuv jarayonining asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Shuningdek, Yevroatom tuzilishidan yana bir ko'zlangan maqsad atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha a'zo davlatlar tomonidan boshlangan yoki tayyorlanayotgan parchalanuvchi materiallar va tadqiqot dasturlarini yetkazib berishni muvofiqlashtirish edi. Ushbu tuzilmani tasqidlovchi shartnomada ham bu alohida ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, EEC shartnomasida quyidagi umumiy kelishuvlar ko'zda tutilgan: a'zo davlatlar o'rtasida bojxona to'lovlarini bekor qilish, tashqi yagona bojxona tarifini belgilash, qishloq xo'jaligi va transport uchun yagona siyosatni joriy etish, Yevropa ijtimoiy jamg'armasini yaratish, Yevropa investitsiya bankini tashkil etish, a'zo davlatlar o'rtasidagi yaqin munosabatlarni rivojlantirish. Yevroatom shartnomasi dastlab juda katta maqsadlarni, jumladan, "yadro sanoatini tez barpo etish va rivojlantirish"ni qo'ygan edi. Biroq, a'zo davlatlarning hayotiy manfaatlariga (mudofaa va milliy mustaqillik) ta'sir ko'rsatadigan yadro sektorining murakkab va nozik tabiati tufayli bu ambitsiyalarni qisqartirishga to'g'ri keldi.

Yevropa hamjamiyatlari (ECSC, EEC va Yevroatom) qit'ani parchalab tashlagan voqealarga bevosita javob sifatida shakllangan. Ko'plab jamoatchilik vakillarining fikriga ko'ra, aynan 1957-yilgi Rim shartnomalari Yevropa integratsiyasi asoslarini va oltita Yevropa davlati uchun umumiy kelajak tushunchasini mustahkamlagan bitimlar edi. Bu shartnomalar hamjamiyatlarni yaratish ortidagi maqsadlarning birligini, ya'ni Yevropa davlatlari umumiy kelajakni qurish uchun birgalikda harakat qilishlari kerakligiga ishonchni berdi va o'z taqdirini nazorat qilish imkonini yaratdi[1:4-5].

YIHga qo'shilishi bilanoq, Germaniya uning ta'sischi a'zosiga aylandi va davlat kansleri Konrad Adenauer hamjamiyatning yetakchisi etib tayinlandi. Hamjamiyat komissiyasining birinchi rasmiy yig'ilishi 1958-yil 16-yanvarda Belgiyadagi Chateau de Val-Duchesse saroyida bo'lib o'tdi. Siyosiy o'zgarishlar sari birinchi qadam 1959 yil oxirida, olti a'zo davlat tashqi ishlar vazirlari har chorakda bir marta siyosiy masalalar va xalqaro muammolarni muhokama qilish uchun yig'ilishlarini e'lon qilganlarida sodir bo'ldi. YIHning birinchi muhim yutuqlaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun umumiy narx darajalarining o'rnatilishi (1962-yil) bo'ldi. Lekin, hamma uchrashuvlar ham silliq kechmagan. Tashkilot yig'inlarida o'zaro nizolar va kelishmovchiliklar ham kuzatilgan. Jumladan, 1962-yilda kuchga kirgan Umumiy qishloq xo'jaligi siyosatini moliyalashtirish bo'yicha takliflar masalasida ittifoqdoshlarning qarashlari turlicha bo'lgan. Qarorlar bir ovozdan qabul qilinadigan o'tish davri yakunlangach, kengash qarorini tasdiqlash paytida Fransiyaning o'sha paytdagi prezidenti Sharl de Goll bunga qarshilik bildirgan. Ish xattoki Frantsiyani vaqtincha Yevropa institutlaridan chiqarib yuborilishigacha yetib borgan. Oxir-oqibat,

1966-yil 29-yanvarda Lyuksemburdagi kengashda fransuzlarning tasdiqlangan qarorni qabul qilishi bilan murosaga erishilgan.

60-yillarda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati tashkilotining davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini shakllantirish jarayonlari amalga oshirildi. Ilk bor milliy organlardan yuqori turuvchi tashkilotlar shakllantirildi: Yevropa Kengashi qonunchilik organiga, Yevropa Hamjamiyati komissiyasi (Yevrokomissiya) ijro organiga aylandi. Vazirlar kengashi, Assambleya (konsultativ organ, keyinchalik Yevroparlament deb atalgan), Yevropa sudi (Oliy arbitraj sudi), Maslahat qo'mitasi tashkil qilindi. Integratsiya masalalarini hal qilishda ular to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni milliy hukumatlar va parlamentlar tasdig'isiz joriy qilinuvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'ldi. Hamjamiyat institutlarining qonunchilik faoliyati uchun asoslarni va yetakchi tamoyillarni umumiy siyosatni o'z ichiga olgan: umumiy qishloq xo'jaligi siyosati (38-43-moddalar), transport siyosati (74 va 75-moddalar) va umumiy savdo siyosati (110-113-moddalar) tarzida shartnomada alohida belgilab qo'ydilar.

Dastlab YIHga a'zo bo'lgan davlatlarning siyosiy suvereniteti to'la saqlanib qolgani holda, integratsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida bojxona bojlaridan asta-sekinlik bilan voz kechish, moliyaviy qonunchilikni bir xillashtirish va yagona agrar siyosatni olib borish kabilar belgilab olindi.

1965-yil 8-aprelda "Birlashish shartnomasi" deb nomlanuvchi Yevropa hamjamiyatlarining yagona Kengashi va yagona Komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolanishi bilan, Yevropadagi institutlarni birlashtirish jarayonining ilk bosqichi yakunlandi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati ECSC va EAEC ustidan nazorat o'rnatdi. Bu umumiy YIH tizimining sohaviy vakolatlariga ega bo'lgan institutlarining birgalikda yashashi uchun juda muhim omil edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. European Parliament. The historical development of European integration. – Strasbourg, 2018. – P. 48.
2. Kichkilov H., Fayzullayeva M. Eng yangi tarix (1945-2010 yillar). – Toshkent: Yangi nashr. – B. 674.
3. Lafasov M. Jahon tarixi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2015. – B. 387.
4. Nazarova G., Xalilov X., Azimov A., Xanova A. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 421.
5. Peo Hansen, Stefan Jonsson. "Bringing Africa as a Dowry to Europe". European Integration and the Eurafrican Project, 1920-1960 // International Journal of Postcolonial Studies. – № 13. – P. 725.
6. Warren Christopher. In the steam of history. – California: Stanford University Press, 1998. – P. 214.

Internet manbalari:

1. <https://daryo.uz>

2. http://www.cvce.eu/obj/the_political_consequences-en-bafcfa2d-7738-48f6-9b41-3201090b67bb.html
3. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=LEGISSUM:xy0022>
4. https://european-union.europa.eu/principles-countries-history/history-eu/1945-59_en